



O`QUVCHILARINI BADIY-G`OYAVIY TARBIYALASHDA XORAZM DOSTONCHILIGIDAN FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI.

Axmedov Nosir Shuhrat o'g'li

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani 10-sun BMSM o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10722963>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 23-fevral 2024 yil

Ma'qullandi: 25-fevral 2024 yil

Nashr qilindi: 27-fevral 2024 yil

KEY WORDS

Ta'lif tizimi, Xorazm dostonchiligi, texnologiya, metodika, audio va video yozuv, ritmik harakat

Kirish:

XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmida doston ijro an'analarining buyuk davomchilarini bir-birida mahoratli ijrochi va sozanda ustoz shogirdlarining ijodiy mahoratini oshirish maqsadida hoslar davrasida turli tuman musiqiy kechalar bazimlat yashkil qilinishi natijada dostonlarni bilib olgan yosh baxshilarga bitta dastonni turli variantlarda ko'rsatib, ularni mustaqil ravishda mukammal ijro qilishar edilar. Bunday davralardan maqsad ustoz shogirdlaridan shu tariqa ijro ham ijodiy barkamollikka erishishni talab qilar edi. "Ustoz-shogird" maktabi asosida dostonlarni o'rganish uzoq o'tmishda shakllangan va hozirgacha davom ettirilmoqda. Ijrochilik sabog'i azal-azaldan an'anaga ko'ra ustoz-shogird ko'rinishida amalga oshirilgan. Har bir shogird o'z ustozni nazaratida va tarbiyasida bo'lgan. Musiqa san'ati va badiiy adabiyotga xos bo'lgan soz chertish, daston aytish, so'zni to'g'ri talaffuz qilish, she'r va nasriy qisimlarni ma'nosini anglash, musiqiy merosni o'rganish doimo ustozlarning nazaratida bo'lgan. Shogirdning xalq oldida, musiqa ixlosmandlari oldidagi mustaqil daston kuylashi ustozning bevosita ijozati bilan amalga oshirilgan edi.

Og'zaki an'anadagi doston ijrosini musiqashunoslikda o'rganilishiga kirishish taxminan 1924-yillardan boshlangan bo'lsa, bu musiqa janrlarini matab musiqa faoliyatiga olib kelish g'oyalari ancha uzoq yillardan keyin boshlangan edi. 1980 yil bahorida Xivada o'tkazilgan folklorchi musiqashunoslар seminarida ko'pgina o'zbek musiqashunos, kompozitor va musiqa oliy o'quv yurtlari pedagoglari doston va boshqa kasbiy musiqa janrlarining yuqori tarbiyaviy ahamiyatini qayd qilib, ularni o'rgatishni matabdan boshlash lozimligini aytgan edilar.

1982 yilda pedagogika institutlarining musiqa-pedagogika fakultetlarida dostonasoslarni o'rganishning dasturi tuzilib nashr etilgan edi. 1980 yillarning oxirlarida dostonlar qisqa hajmda bo'lsada 7-sinf darsligiga kiritildi. Ana shu davralardan beri kasbiy musiqa janrlarini o'rganish va matab musiqa faoliyatiga jalb etish amaliyoti davom etib kelayapti. Shuning bilan birga bu doston asarlarni matabda o'rganish uslubiyoti borasida ham anchagina ishlar amalga oshirilgan.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Xorazm dostonchiligi vositasida o'quvchi-yoshlarni badiiy-g'oyaviy tarbiyalash texnologiyalari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

Keyinchalik mutaxasislar maktab musiqa darslarida dostonlarni o'rganish uslublari haqida fikrlar bildirdilar va o'qituvchilar uchun qo'llanma tuzdilar. Yuqorida tilga olingan ishlar bu boradagi muammolarni yechishda ma'lum xizmat qildi. Ammo hozirgi kunda muammo oxirigacha yechilgan emas. Nazarimizda eng katta muammo nota to'plamlari, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, tinglash uchun mo'ljallangan avdio variatdagi daston ijrosini yozuvlari hamda texnika vositalarining mamlakatizning barcha hududlarida birdek yetishmaslididir¹.

Ma'lumki, oddiy xalq orasidan yetilib chiqqan barcha dono hunarmand iste'dodli shoir, musiqachi va olimlarning eng sarasi saroy xizmatiga jalb etilgan. Saroydagi musiqachilar uyushmasida faoliyat ko'rsatib kelgan mashhur sozanda va xonandalar el nazariga tushganlariga qadar qishloq va shahar aholisiga musiqiy xizmat ko'rsatib, ularning ijodiy prinsiplari shu oddiy xalq musiqasi assosida shakllandi. Binobarin, dostonlarni yaratishda ham ustoz ajdodlarimiz xalq musiqasining yorqin namunalaridan unumli foydalanganlar. Mustaqillik sharofati bilan barcha milliy qadriyatlarimiz qatorida dostonlarni ham tiklash, ularning nazariy asoslari va amaliy ijrosini keng ko'lama o'rganish nazarda tutilmoqda. Shu nuqtai nazardan yondashib Xorazm dostonlari ijro uslublari ustoz baxshilar tamonida ijro jarayonida yozib olingan parchalarni tinglash, ayrim namunalarni kuylash, umumiyo'rta ta'lim maktablari o'quv jarayoniga kiritilishi kuzatmoqdamiz.

Dostonlarni o'rganish va o'rgatish tizimi hozirga kadar uzil kesil shakllanib bo'lman. Agar biz bu jarayonning o'tmishdagi tizimiga nazarimizni qaratmoqchi bo'lsak, ustoz shogirdchilik an'analari va bu an'anuning og'zaki tarzda amalga oshib kelganiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi kunlarda esa bu jarayon qisman Yevropa nota tizimiga asoslanganligi ko'zga tashlanmoqda. Bu har ikkala o'rganish va o'zlashtirish usulining o'ziga xos afzalligi va kamchiliklari mavjud. O'tmishdagi ustozlar o'zlariga ma'qul bo'lgan, ya'ni kuchli musiqiy xotiraga, ovozga va qiziqishga ega yoshlarni tanlab dostonlar ijrosini o'rgatgan bo'lsalar, hozirgi kunda ayrim o'rta miyona musiqiy imkoniyatlarga ega bo'lgan yoshlar ham doston musiqasi bilan shug'ullanmoqdalar.

Bunga nota yozushi va dostonlar ijrosi audio yozuvlari sabab bo'lmoqda. Dostonlardek murakkab va mukammal musiqiy janrlarni o'zlashtirish va kasb qilib olish uchun esa eng avvalo yetuk ustozlardan ta'lim olish va qo'shincha vosita sifatida nota yozushi hamda turli ijrochilarning audio yozuvlarini taqqoslab eshitishdan foydalanish zarur. Dostonlar ijrosi bo'yicha o'quvchi yoshlar, dostonlar ijrosini o'rganish uchun turli usullar (yetuk baxshi ustozlarning ijrolarini eshitish, ustozlarning ijro ko'rsatishlari, imkoni boricha takomillashgan nota yozuvlaridan foydalanish, o'z ijrosini avdio tasmasiga yozib, qaytib tinglash va shu yo'l bilan ijrosini takomillashgirish va boshqa)dan foydalanadilar. Umumiyo'rta ta'limda o'quvchilarga Xorazm dostonlari asarlarini o'rgatish jarayonida asosan dostonlar xaqida nazariy ma'lumotlar olish va dostonlarning ayrim yorqin namunalarini yoki ulardan olingan parchalarni kuylab o'zlashtirishga e'tibor qaratiladi. Buning sababi shundaki, umumiyo'rta ta'lim tizimida tarbiyalanayotgan o'quvchilar dostonlarning umumiyo tabiatini va xususiyatlaridan xabardor bo'lib, ulardan ma'naviy ozuqa olishlari nazarda tutiladi².

Xorazm dostonlari o'quvchi-yoshlarga o'rgatishda quyidagi usullardan foydalanish zarur va foydali deb o'laymiz:

¹ Maqom san'atini o'qitishning dolzarb masalalari/Iroda Nazarova Molodoy ucheniy.- 2020.-№4(294).

² Maqom san'atini o'qitishning dolzarb masalalari/Iroda Nazarova Molodoy ucheniy.- 2020.-№4(294).

- *Xorazm dostonlari va kasbiy musiqaning boshqa janrlari (mumtoz kuy va ashula,)ga xos nazariy ma'lumotlar va amaliy ijro xususiyatlari bilan tanishish;*
- *Xorazm dostonlari ijro etgan yetuk baxshilar hamda ularning ijro yo'llarini taqqoslab, tahlil qilish;*
- *xususan dostonlarning turkumliligi, tuzilish xususiyatlarini ijro davomida bir-biridan ajrata olishni o'rganish;*
- *dostonlarning nota yozuvlarini o'rganish va notada o'z aksini topa olmagan ijrodagi nozik nuqtalarini topib, ularni jonli ijrodagi holatini ta'minlash;*
- *audio va video yozuvlardagi doston numunalarini tinglash;*
- *doston va boshqa kasbiy musiqa janrlaridan ayrim asarlarni muntazam ravishda yuqorida ko'rsatilgan usullar asosida o'rganib borish va o'z ijrosini takomillashtirishga intilish;*
- *ayrim tadbir va konsertlarda jonli ijro chiqishlarini amalga oshirish³.*

O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarning ko'proq qismida mutatsiya davri o'tayotganini sezib, musiqa darsi mazmuniga bir qancha o'zgartirishi mumkin. O'qituvchi rejalashtirilgan qo'shiqlarni o'rgatishda ko'proq qo'shiq mazmuni va mualliflari, musiqiy yo'nalishlar, musiqiy hayot yangiliklariga to'xtalib, baland pardalarda kuylash, uzoqroq davom etadigan vokal-xor mashqlarini silliqroq, asosan o'rta registr tovushlarda kuylatishga o'tishi tavsiya etiladi. Bu davrda o'quvchilarga ko'proq doston, mumtoz kuy va ashulalar, ularning ijro an'analari, yorqin va taniqli dostonijrochilar haqida ixcham va qiziqarli hayotiy ma'lumotlar berib, suhbatlar uyushtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Ko'proq musiqa eshitishga harakat qilinadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarga ko'pincha qiziqarli sarguzashtlarga boy voqealari rang-barang dostonlar ko'proq yoqadi. Bunday asarlarda qahramonlik va boshqa insoniy sifatlar o'quvchilarga so'z va musiqa uyg'unligida zo'r ta'sir ko'rsatib, ularni o'ziga rom qiladi. Bunda o'qituvchining kasbiy saviyasi, nutqi, emotsional his tuyg'ulari ham muhim rol o'ynaydi. Darslarning qiziqarli va samarali o'tishi ko'rgazmali qurollar, texnika vositalaridan unumli foydalanish hamda fanlar aro aloqa omillaridan foydalanishning ahamiyati beqiyosdir. Shu sababli umumiyoq o'rta talim maktablarida zamonaliv yangi dastur kiritila boshlandi. Yangi dasturning avvalo, darsning muayyan mavzulari – dostonlar doston kuylari va boshqa og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa janrlariga kiradigan musiqa janrlarini Yevropa musiqasi namunalari bilan qiyosiy o'rganish asosida ularning mohiyatini tushunishga yordam beradi. Sobiq eski tuzim davridagidek har bir faoliyat turi o'z qisqa maqsadiga xizmat qilib, ularni amalga oshirish uchun aniq belgilangan daqiqalar (dars vaqt) ajratilmasdan, musiqa tinglash, mashqlar va qo'shiq tinglash, mashqlar va qo'shiqlar kuylash hamda musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mazmuni va mavzuini ochib beruvchi musiqa faoliyatasi sifatida qabul etiladi. Bu omil mumtoz kuy va ashulalarni asosan tinglash yo'li bilan o'zlashtirishga keng imkon yaratib beradi. Dars mavzusining qiziqarli ritmik harakatlar, chapak va bolalar o'yinchoq musiqa asboblari shiqildoq, doyracha, qoshiq va boshqa ritmik asboblar orqali musiqaga jo'r bo'lish hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqa faoliyatları qo'llaniladiki, bu faoliyatlar o'quvchilarni daston janrlarini o'zlashtirishlari uchun yordam beradi. Ushbu faoliyatlar zamirida faol ishtirok va ijrochilik xususiyatlari mavjudligi tufayli ular o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan barcha faoliyat turlari dars mavzusining

³ Karimov S. Axloqiy madaniyat asoslari (Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda qo'llaniladigan terminlarning izohli lug'ati). –T: Fan, 1998 y.

ajralmas qismi sifatida amal qiladi. Bu jihatdan “Musiqa” predmeti aralash dars tipiga kiradi va undan darsning umumiyligi mavzusiga bo’ysunuvchi o’zaro, mantiqan bog’lanvuchi quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qiladi:

- *musiqa idroki (tinglash) kuylash;*
- *musiqa savodi;*
- *ritmik harakatlar va hakoza.*

Musiqa madaniyati darsining muhim vazifalaridan biri – o’quvchilarnig musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Musiqa idroki (tinglash) va musiqa savodi faoliyati o’zaro uzviy bog’lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. O’quvchilarnig tabiiy musiqa asboblari – bu ularning ovozlaridir. Dasturda berilgan ayrim daston parchalarini kuylash uchun moslashtirilgan parchalari milliy musiqiy an’analor uslubini o’zlashtirib olish, musiqiy merosga xos yorqin intonatsiya, usul (ritm) hissini shakllantirish, o’quvchilarning musiqa o’quv qobiliyati hamda daston ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir.

Bunda o’quvchilar Xorazm dostonlari va ijrochilari bilan tanishish va mazmunini birgalikda yechishga harakat qilindi.

O’zbek xalqi o’zining g’oyat qadimiy madaniyati va serqirra ijodiy salohiyati bilan jahon tamadduni taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shamdi. Ayniqsa o’zbek musiqa madaniyatida baxshichilik ijodining ahamiyati juda kattadir. O’zbek xalq baxshilaridan yuz ellikdan ko’proq sujetga bo’lingan to’rt yuzdan ortiq doston yozib olingan. Bu dostonlar nihoyatda ko’p tarmoqli va ko’p mavzuli bo’lib, uzoq asrlar davomida yaratilgan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylanib kelingan.

Dostonlar haqida aytganda Xorazm dostonchiligi musiqiyligi, dostonni jo’r ovoz bo’lib ijro etilishi, doston ijrosida bir necha musiqa asboblarida jo’r bo’linishi bilan ajralib turishini takidlash lozim.

Xorazm dostonlariga “Bozirgon”, “Oshiq g’arib va Shohsanam”, “Qirq ming”, “Oshiq Mahmud” kabilarni misol qilishimiz mumkin. Bundan tashqari Xorazmda bu dostonlarni Amad baxshi, Bola baxshi (Qurbanazar Abdullaev), Boltavoy baxshi, Qodir sozchi, Murod Baxshi, Ro’zimbek baxshi, Otaxon baxshilar kuylashgan.

Mustahkamlash: So’ngra darsni mustahkamlash uchun o’quvchilar bilan bahs-munozaralar olib, boriladi, krosvord, test, anketa va savol javoblar uyuştiriladi.

Xorazm dostonlarini o’rganishni oqilonqa tashkil etish uchun musiqa madaniyati fani doirasida o’quvchilarning guruh yoki badiiy jamoadagi o’rtoqlari bilan to’g’ri o’zaro munosabatlар o’rnatish (ijtimoiy kommunikatsiya, refleksiya, ijtimoiy persepsiya) yo’llari ko’rsatilishi maqsadga muvofiq. Bunda o’quvchilarning Xorazm dostonchiligi musiqasini idrok etish va uni tasarruf qilish uchun ham nazariy, ham amaliy tayyorgarlikni amalga oshiradi. O’quvchilarning musiqiy tafakkur va idroki shakllanishida, qolaversa ularga ta’lim va tarbiya berish jarayonida yuzaga keladigan yoki namoyon bo’ladigan hissiy hayajonni psixologik moslashtirish, ijro mahoratini yanada takomillashtirish, tarbiyalash qonuniyatlarini o’rganib, musiqa mashg’ulotlarini sifatli tashkil etish uslublarini ishlab chiqadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Akbarov I. A. Musiqa lug’ati. T; G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1997 yil.
2. Bulbul taronalari. Ergash Jumanbulbul o’g’lining doston va termalari. 5tomlik. – I.: Fan, 1971-1973.

3. Fozil Yo'l dosh o'g'li. Tanlangan asarlar. -T.: O'zdavna shr, 1949.
4. Axmedov, N. (2023). The Essence Of Artistic-Ideological Content Of Kharezmian Epic. *Development and innovations in science*, 2(3), 76-79.
5. Axmedov, N. (2022). Sharq musiqasning inson tarbiyasi va ruhiyatiga tasiri. Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya, 1(6), 102-105.
6. Axmedov, N. S. O. G. (2022). Xorazm dostonchiligi vositasida o'rta sinf o'quvchilarini badiiy g'oyaviy tarbiyalash. *Science and Education*, 3(3), 624-628.
7. Shuhrat ogli, A. N. (2022). Characteristics and Traditions of Khorezm Friends. *European Journal Of Innovation In Nonformal Education*, 2(7), 1-3.

